

BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA NOAN’ANAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Ortiqova Gulchehra Safaboyevna

Toshkent shahri Olmazor tumanidagi

24-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodikalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, matematika, suhbat, bayon, yozma so‘rov, illustratsiya, natural son, arifmetika.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdagi o‘quvchilarni umumiy tizimda o‘qitish va tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Bizga ma’lumki, boshlang‘ich maktabda matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan individual yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan.

Didaktikaga doir qo‘llanmalarda bilimlarni bayon qilish va mustahkamlashning formalari sifatida quyidagi o‘qitish metodlari qaraladi: kuzatish, o‘qituvchining bilimlarini (bayon, suhbat, hikoya, mashq) o‘quvchilar bilan darslik va boshqa kitoblar bilan ishlash, kuzatish, laboratoriya ishi, mustaqil ishlar.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish jarayonida o‘qitish materialining mazmuni va o‘quv sinfining katta-kichikligiga qarab bu metodlardan turli o‘rinlarda foydalanish mumkin.

Yuqorida tilga olingan metodlarni qo‘llagan holda fanni o‘qitishda qo‘llab ko‘ramiz.

Matematika o‘qitishda kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonida o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan

muammoli holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatgichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. O‘quvchilar bilan matematik faktlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega. Natural sonlarning xossalari, arifmetik amallarning xossalari, geometrik figuralarning xossalari va hakozolarni kuzatish o‘quvchilarning qobiliyatlarini o‘siradi. Arifmetik amallar va sonlarning ko‘pgina xossalari quyisi sinflarda kuzatish bilan tushuntirilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, 1-sinf o‘quvchilari qo‘shishning o‘rin almashish xossasini kuzatish orqali tez bilib oladi.

$$5+3=, \quad 3+5=, \quad 6+1=, \quad 1+6=, \quad 2+7=, \quad 7+2=.$$

Shunday misollarni 1-sinf o‘quvchilari yechgandan keyin birinchi qatorning yechimlarini tenglashtirishni o‘qituvchi tavsiya etadi.

$$5+3=8 \text{ va } 3+5=8. \text{ Natija quyidagi xulosani keltirib chiqaradi.}$$

Xulosa (misollar nimasi bilan bir-biriga o‘xshash). Bir xilda qo‘shish amali bajariladi. 5 va 3 bir xil qo‘shiluvchilar. 8 va 8 bir xildagi natijalar. Farqi (bu misollar nimasi bilan bir-biridan farqlanadi). Qo‘shiluvchilarning qo‘shish tartibi farq qiladi. Shunga o‘xshash boshqa misollarni ham yechib o‘quvchilar quyidagi umumiy xulosaga keladilar: qo‘shiluvchilarning qo‘shish tartibini o‘zgartirgan bilan yig‘indi o‘zgarmaydi.

Qaralgan holda kuzatish metodini qo‘llash, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan bilimlarni bayon qilishda ham, hisoblashga doir masalalar yechishga doir bosqichlarda ham katta ahamiyatga egadir.

Suhbat metodi. O‘qituvchi biror metodni, masalan, suhbat metodini qo‘llaganda o‘quvchilarning bilish faoliyatini har tomonlama o‘sirish mumkin. Masalan, 100 ichida raqamlashni o‘qitishda o‘quvchilarga qanday sonlar bir xonali va qanday sonlar ikki xonali sonlar deyilishini aytib o‘tish lozim. Shuningdek, suhbat jarayonida nechta raqam bilan nol ifodalanishini va 1 dan 9 gacha nechta son, 10 dan 99 gacha nechta son borligini bayon qilish kerak.

Bayon qilish metodi. Mazkur metod ikki turga bo‘linadi:

a) ko‘rgazmali bayon qilish. Bunda o‘qituvchi bilimlarni bayon qilish bilan birga uning haqiqiyligini misollar orqali namoyish qiladi.

b) muammoli bayon qilish. Bunda o‘qituvchi materialning muammosini qo‘yadi, uni yechish yo‘llarini ko‘rsatadi, asoslaydi va isbotlaydi.

Masalan: agar ko‘payuvchi va ko‘paytuvchining o‘rni almashtirilib ko‘paytirilsa, ko‘paytma qanday o‘zgaradi? O‘qituvchi bu savolni tushuntirishda illyustratsion ko‘rgazmalardan foydalanadi:

$3 \times 4 = 12$ ya’ni $3+3+3+3=12$ yoki $4 \times 3 = 12$ ya’ni $4+4+4=12$. Demak, ko‘paytma va ko‘paytuvchilarining o‘rnini almashtirgan bilan ko‘paytma o‘zgarmaydi degan xulosani o‘quvchilar illyustratsiyalar yordamida keltirib chiqaradi.

Taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish. Matematika o‘qitishda bir-biriga o‘xhash masalalar juda ko‘p. Masalan, qo‘sishning o‘rin almashtirish va ko‘paytirishning o‘rin almashtirish xossalari $4+3=3+4$, $3 \times 4 = 4 \times 3$ o‘quvchilar bu xossalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, farq qiluvchi va o‘xhash tomonlarini ajratib oladilar. Yangi materialni tushuntirish uchun ham mashqlarni shunday tanlash kerakki, ular oldingi darsda yechilgan mashqlar bilan bir xillik va farq qiluvchi elementlarni ajratib olsin. Matematika o‘qitishda qarama-qarshi masalalar ham, masalan, qo‘sish va ayirish uchraydi. Bu ikki miqdorni to‘g‘ri qo‘llash bilimlarni umumlashtirishga, to‘g‘ri xulosa chiqsarishga olib keladi.

Biz yuqorida ta’lim metodlarining bir nechtasini ko‘rib chiqdik. Mazkur metodlar yordamida boshlang‘ich ta’limda matematikani o‘qitish orqali o‘quvchilarining matematik tushunchalar, xossalari, shakllari, usullari va algoritmlari haqida bilim, ko‘nikmalar egallashlarini taminlaydi. Mazkur metodlar yordamida inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematiik bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatadi hamda o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini, fikrlashini, dunyoqarashini kengaytirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.M.E.Jumayev, Z.G‘.Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. www.pdffactory.com
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika. Toshkent 2017-yil
3. Yunusova D. Bo‘lajak matematika o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. – T.: 2009.

